

**QO‘QON XONLIGIDAGI QIRG‘IZ VA TURKMAN XALQLARINING
TO‘Y MAROSIMLARI****Obidjonova Gulchexra Mamirjon qizi***Farg‘ona davlat universiteti 2-bosqich magistranti*

Obidjonovagulchehra5@gmail.com

+998911115017

Annotatsiya: Mazkur maqolada Qo‘qon xonligi hududida yashovchi ikki ko‘chmanchi xalq – qirg‘iz va turkmanlar madaniyati urf-odatlarini ijtimoiy hayotini ochib beradigan to‘y marosimlari batafsil yoritiladi. Shuningdek bir hududda yashovchi ikki xalqning ijtimoiy hayotdagi bir marosimi orqali ular o‘rtasidagi o‘zaro farqli va o‘xshash jihatlari chuqur tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Turkman, qirg‘iz, ko‘chmanchi, urf-odat, to‘y, marosimlar, kelin-kuyov, qudachilik, nikoh.

Abstract: This article provides a detailed look at the wedding ceremonies that reveal the cultural traditions and social life of two nomadic peoples living in the territory of the Kokand Khanate - the Kyrgyz and the Turkmen. It also provides an in-depth analysis of the differences and similarities between the two peoples living in the same region through a ritual in their social life.

Keyword: Turkmen, Kyrgyz, nomad, tradition, wedding, ceremonies, bride and groom, wedding ceremony, marriage.

Аннотация: В статье подробно рассматриваются свадебные обряды, раскрывающие культурные традиции и социальную жизнь двух кочевых народов, проживавших на территории Кокандского ханства, – киргизов и туркмен. Также дается глубокий анализ различий и сходств между двумя народами, проживающими в одном регионе, через ритуальную составляющую их социальной жизни.

Ключевые слова: туркмены, киргизы, кочевники, традиции, свадьба, обряды, жених и невеста, свадебная церемония, брак.

Qo‘qon xonligi hududida ko‘plab etnik guruhlar yashagan bo‘lib, har bir xalqning o‘ziga xos madaniyat va an‘analarga mavjud bo‘lgan. To‘y marosimlari esa xalqning an‘analari, urf-odatlarini va madaniy qadryatlarini avloddan-avlodga yetkazish vositasi bo‘lgan. Qo‘qon xonligi atrofida yashovchi turkmanlar ko‘chmanchi hayot tarzini davom ettirib, o‘zlarining ijtimoiy va madaniy hayotida to‘y marosimlariga alohida etibor berishgan. Chunki ushbu marosim nafaqat oilaviy ahamiyatga ega, balki ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilgan. Turkmanlarning to‘yi avvalo kelin

va kuyovning qarindoshlari o'rtasida kelishuv asosida boshlanadi. Kelishuvdan so'ng kelin va kuyovning qarindoshlari tomonidan to'ygacha bo'lgan urf-odatlar bajariladi.

To'y marosimini o'tkazish uchun "omadli kun" belgilanadi. Amudaryoning o'rta oqimida yashaydigan turkmanlarda bu kun dushanba hisoblanadi. Dehqonchilik bilan shug'ullanadigan tumanlarda to'y marosimlari kuzda, qishloq xo'jalik ishlari tugagandan keyin qilingan. Marosimlarning asosiy qismi kuyovning xonadonida bo'lib o'tgan. To'y kelinni uyida hamqishloqlari davrasida bo'lgan holos. Kuyovning uyida nechta qo'y so'yilsa, kelinni uyida ham shuncha qo'y so'yilgan [2:159].

Erta tongdan kelinni uyiga yangalari tengdoshlari kelinni hursand qilish uchun to'y qoshiqlari kuylab kelishardi. ularning qo'shiqlarida kuyovning ijobiy va salbiy tomonlarini xazil tariqasida kuylashgan va bunga javoban kuyovning yangalari ham javob tariqasida aytishuvlar aytishgan.

Turkmanlarda kelinning kiyimi odatda qizil rangda bo'lib bu rang "nazar" tegishidan saqlanish va kelinning baxtini ta'minlashga hizmat qilgan. Libos ko'pincha oltin va kumush bilan bezatilgan.

An'analarga muvofiq to'y karvoni kelishida kelinga yangalari paranji tashlaganlar. To'y karvoni judayam hashamatli ko'rinishda bo'lgan: tuyalar, tuyalar ustiga o'rnatilgan maxsus kelin uchun bezatilgan taxtiravonda oldinda ayollar, yon tomon va orqada otliq qo'riqchilardan iborat bo'lgan. Har bir tuyada ikki yonli taxtiravon bo'lib kelin uchun alohida taxtiravon yonlari har xil rangli duxobalar qilan bezatilgan. Tuyaning bo'ynida esa qo'ng'iroqcha osib qo'yilgan. Kelinning qarindoshlari va qishloqdoshlari tuyalarni oldindan tayyorlab qo'yilgan non bilan siylashgan. Shuningdek kelinni o'z uyidan kuyovni uyiga olib borilgandan so'ng nikoh marosimi diniy rahbarlar tomonidan o'qiladi [2:160].

Lekin bazi manbalarda Turkman to'y marosimlarida ayollarga ko'proq erkinlik beriladi, buni natijasida nikoh odatda sevgi uchun amalga oshiriladi. Turkmaning qizi har doim yuqori narxga ega bo'lgani uchun agar oshiqning qonuniy ravishda o'ziga kelin sotib olishga imkoni bo'lmasa, u sevgilisini otga mindiradi va eng yaqin qishloqqa yashiradi, u erda u bilan ittifoq tuzadi va keyin ajralish imkonsiz bo'ladi. Ota-onalar va qarindoshlar bu ittifoqdan habar topsalar har ikki yoshning qarindoshlari o'zaro bu masalani hal qiladilar [3:79].

Qirg'izlar juda erta turmush quradilar va ko'pincha kelinni kuyovning o'zi emas, balki ota-onalar farzandlari uchun, hatto go'dakligida tanlab qoyishadi. Ko'pincha 2 yoki 3 yoshli bola unashtirilgan bo'ladi va u 12-15 yoshga to'lishi bilan oq u qonuniy nikohdan otadi.

Qirg'izlarning odatiga ko'ra, kelin bizdagidek kuyovga sep olib kelmaydi, kuyov qiz uchun ota-onasiga to'lov berishi kerak. Bu odat ular orasida "qalin puli" deb ataladi. Bunda ikki oila daromadiga qarab, o'zaro kelishiladi; masalan badavlat oilalarda kuyov kelin uchun 47 bosh turli chorva mollari: tuya, ot, sigir va boshqalarni

qalin sifatida to'laydi. O'rtacha daromadli oilalarda kelinning narxi 27 boshdan 37 boshgacha, kambag'al kuyov esa 7 boshdan 9 boshgacha to'laydi. Ba'zan, sharoitga ko'ra o't va tuya o'rniga kuyov qo'chqor to'laydi; lekin bitta ot o'rniga 6 dan 8 tagacha qo'chqor to'laydi. Qalinning narxi birdaniga to'lanmaydi balki bo'lib bo'lib to'lanadi avval qo'chqorlar, keyin tuyalar va nihoyat, o'tlar, shuning uchun unashtirish uzoq davom etadi [1:43].

Ota o'g'liga kelin tanlaganda avvalo kelinning ota-onasining oldiga o'zining qarindoshlarini yuboradi, ular qizini o'g'liga berishga rozi bo'ladimi yoki yo'qligini bilish uchun. Agar kelinning ota-onasi rozi bo'lsa, u holda sovchilar darhol unashtirishni boshlashadi. Kuyovning otasi yaqin qarindoshlaridan bir nechta sovchilarni (3 tadan 9 tagacha) tanlaydi va ularni ovulga kelinning otasinikiga yuboradi. Sovchilarni izzat-ikrom bilan qabul qilib, mehmon qilishadi. Ziyofatdan so'ng ular ishga kirishadi: ikkala oilaning sovchilari nikohni qabul qiladilar, unda ular qaror qiladilar: kuyov qancha qalin to'lashi kerak, qancha muddatda va necha qismlarga bo'lib to'lashi kerak, nihoyat, to'y qachon bo'lishi kerak, chiqimlar haqida kelishiladi va kelinning ota onasiga sovg'aga qancha mablag' ajratilishi kelishib olinadi. Shunday qilib, ikki taraf tomonidan nikoh shartnomasi qabul qilinishi bilanoq, kelinning ovulida ziyofat va turli o'yin kulgilar boshlanadi: kurash, o'yinlar, o't poygalari, qo'shiqlar musobaqasi va hokozo.

Shu vaqtdan boshlab qirg'iz odatlariga ko'ra kuyov kelinning ota-onasiga yoki boshqa qarindoshlariga ko'rinmasligi kerak; huddi shunday kelin ham kuyovning qarindoshlariga o'zini ko'rsatmasligi kerak. Kuyov qalinning to'liq narxini yoki kelishilgan holda bir qismini to'laganda, faqat birinchi marta unashtirilganini ko'rishi mumkin.

Chodir mehmonlar bilan to'lganida, bayram boshlandi. Avvaliga qaynatilgan qo'y go'shtini bulon bilan berishadi, qo'y go'shti tugagach, boshqa taom olib kelishadi, bu taomsiz hech qanday unashtiruv marosimi o'tmaydi. Ma'lumki, qirg'izlar ovqat yeyishni xush ko'radilar.: Hattoki butun qo'chqorni yeyishlari ham mumkin ammo bu taomni berishlari bilan hamma irg'ib turib ketadi. Ushbu mazali taom qo'chqor yog'ida qovurilgan va ustiga qaymoq quyilgan jigar edi. Mezbonning oldiga ana shunday mazali taom qo'yilishi bilan o'zi tatib ko'radi va mehmonlarni navbatma-navbat mehmon qilishni boshladi. Ammo mehmonlar bu taomga qo'l tekizmasdan hammasi o'rnidan turib chodirdan chiqish eshigi tomon yo'l oladi. Lekin chiqish eshigi oldindan qulflangan bo'ladi va mehmonlar chodirda qolishga majbur bo'lishadi taomni rad etishni davom ettirishadi. Keyin uy egalari ularni majburlashdan charchashadi; qarindoshlaridan biriga mehmonlarni zo'rlik bilan sudrab borishni buyuradi. Shunday qilib, ikki kuchli, baland bo'yli qirg'iz birinchi kelgan mehmonni ushlab oladi va qanchalik qarshilik ko'rsatmasin, uni ushlab mezbonning oldiga sudrab borishadi,

mezbon qo'lida ular uchun qo'rqinchli bo'lgan taomdan bir necha bo'lak ushlab o'tirgan bo'ladi [1:44]

Mehmon esa endigina uy egasining qo'lidagi taomdan bir bo'laklar og'ziga olishi bilan shu zahoti mezmon kaftida qolgan qaymoqni uning yuziga surtadi. Shuning uchun ham barcha mehmonlar bu mazali taomdan voz kechishadi. Lekin, odatga ko'ra, har bir mehmon taomdan tatib ko'rishi kerak va oxirida hamma mehmonlarni yuzi qaymoq bilan bo'yalishi kk. Kambag'al qirg'izlar bu mazali taomning bir nechta bo'lagi uchun ular bajonidil yuzlarini taklif qilishadi, keyin barmoqlari bilan qaymoqni sidirishib hatto ularni zavq bilan yalashadi.

Agar kelin to'ydan oldin vafot etsa, kuyov uning singlisiga uylanishi mumkin va marhum uchun to'lagan qalin singlisi uchun hisobga o'tadi. Agar kuyov vafot etsa, uning akasi keliniga uylanish huquqiga ega va u ham ikkinchi marta qalin beradi. Huddi shunday Agar turmush qurgan qirg'iz vafot etgan bo'lsa, marhumning ukasi akasining bevasiga uylanish huquqiga ega; agar beva boshqa oilaga turmushga chiqmoqchi bo'lsa, birinchi erining oilasidan ruxsat olishi kerak, aks holda ikkinchi eri qalinning bir qismini shu oilaga qaytarishi shart.

Qirg'izlar o'z farzandlarini yoshiga qarab turmushga berishadi. Katta o'g'illar uylangandan so'ng o'zlari alohida chiqadilar : ota ularga molning bir qismini ulush sifatida beradi va ular ota-onasidan alohida, mustaqil yashay boshlaydilar. Oilada faqat kenja o'g'il qoladi; ota-onasi vafot etgunga qadar ularni farovonligi haqida g'amxo'rlik qilishi va keksaliklarida asrab-avaylashi kerak. Otasi vafotidan keyin u ham chodirning merosxo'ri bo'ladi [1:45].

Qirg'izlarning to'yi ham juda tantanali nishonlanadi va har doim kelinning qishlog'ida bo'lib o'tadi. Qarindoshlar, do'stlar va hatto notanishlar bu erga bir necha kun oldin to'planishadi. Barcha mehmonlar yig'ilishi bilanoq, to'y ziyofati boshlanadi: mehmonlarni mehmon qiladilar , ot poygalari, kurashlar, qo'shiqlar va o'yinlar bilan zavqlanadilar.

Nikohlanish marosimi shunday bo'ladi: chodirga kelin va kuyov ota-onasi, qarindoshlari va do'stlari yig'ilishadi; Mulla ham bor. Kelinning o'zi parda ortida, do'stlari bilan , kuyov esa tashqarida, chodir oldida, kelin o'tirgan joyning qarshisida o'tiradi. Mullaning oldiga bir piyola suv qo'yiladi; u duo o'qiydi va ikki guvoh orqali kelin va kuyovdan navbat bilan so'raydi: ular turmush qurishni xoxlaydilarimi? Ikkalasi ham "ha" deb javob bersa, mulla yosh er-xotinga bir piyola suvdan ichish uchun beradi, qarindosh-urug'larga, chodirdagi hammaga suv berib chiqiladi. Qirg'izlarning butun to'y marosimi shundan iborat iborat.

To'y va ziyofatdan keyin yosh er-xotin erining ovuliga o'tlanadilar; kelinning sepi ularni kuzatib boradi. Ota-onalar qizi uchun sep sifatida Qalinning bir qismini beradilar masalan: qirg'iz xonadoniga zarur bo'lgan narsalar yuklangan bir nechta

tuya; bu narsalar orasida, odatga ko'ra, yosh er-xotin uchun oq chodir, sandiqlar, gilamlar va boshqa uy-ro'zg'or buyumlari.

Yosh er-xotin ovulga eri bilan birga kirmaydi: ovulni uzoqdan ko'rishi bilan kelin otdan tushadi va hamma seplarini va otini eriga berib o'zi cho'lda yolg'iz qoladi. Kelin qirg'iz odatlariga ko'ra kuyovni qishlog'idan ayol va qizlarning kelishini kutadi [1:46]. Shu kundan kuyovni qishlog'i ayollar va qizlari kelinni kutib chiqishadi. Mana, yigit o'z qishlog'iga otlandi; u yosh xotini va yuk yuklangan tuyalariga rahbarlik qilardi. Uni ko'rgan barcha ayollar va qizlar kelinni kutib olishga shoshiladi, yosh er-xotinning oq chodirini otasining chodiri yoniga tayyorlashadi, unda sandiqlar joylashadi, gilam yoyishadi, bir so'z bilan aytganda, yangi turmush qurganlar uchun uy tayyorlaydi. Chodirni tayyorlagach, ular qishloqdan yosh ayolni kutib olish va uni yangi uyiga olib kelish uchun yugurishadi. Yosh ayol ikki kun davomida chodirda parda ortida o'tiradi va butun vaqt davomida u bilan birga bo'lgan qishloq qizlaridan boshqa hech kimga o'zini ko'rsatmaydi. Uchinchi kuni kelinni ko'rish boshlanadi. Kelin ko'rish marosimi shundan iborat; Yosh kelin yuzini yopib o'tiradi va odamlar chodirga yig'ilishi bilan er uning yuzini ochib, mehmonlarga ta'zim qilishini buyuradi. Ushu vaqtda qizlar qo'shiqlar kuylaydi va bu qo'shiqlar kelinning yangi qishlog'ida o'zini qanday tutishi kerakligi haqida gapiradi. Marosim tugashi bilan oq bayram boshlanadi.

Qirg'izlarda ham, boshqa musulmonlar kabi, qonunlarida bir nechta xotin olishga ruxsat beriladi, lekin Qur'onga ko'ra, to'rttadan ko'p emas. Ammo bu huquqdan faqat boy qirg'izlar foydalana olishadi, chunki ular har bir xotin uchun Qalin to'lashlari kerak, kambag'al bechora qirg'izlar bitta xotin bilan qanoatlanadi. Bir necha xotin bo'lgan boy oilada birinchi xotin uyning eng muhim bekasi va qolganlari unga bo'ysunishga majburdirlar [1:47].

Manba va adabiyotlar / Источники и литература / References

1. Вульфсонъ Э.С. Киргизы – Москва, 1901.
2. Дониёров А.Х., Бўриев О., Аширов А. Марказий Осиё халқлари этнографияси, этногенези ва этник тарихи // ўқув кўлланма. – Т.: Янги нашр, 2011.
3. Туркестанский сборник. Том.39.-С 79- 81
4. Плоских В.М. Киргизии и Кокандское ханство. - Фрунзе. 1977.